

Boshlang'ich sinflarga ot so'z turkumini o'qitishning metodik usullari

Nargiza Sardor-qizi Egamberdiyeva
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ot so'z turkumi haqida hamda 3-sinf ona tili darsligining III qismida berilgan topshiriqlar va ularni bajarish ko'nikmalari, shuningdek ushbu mavzuga doira yangi interfaol metodlarni amaliyotga tadbqiq etish usullari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ot so'z turkumi, birlik va ko'plikdagi otlar, shaxs va narsa nomi

Methodological methods of teaching nouns to primary school students

Nargiza Sardor-kizi Egamberdiyeva
Kattakurgan State Pedagogical Institute

Abstract: This article discusses the noun phrase, the tasks given in Part III of the 3rd grade native language textbook, the skills to complete them, as well as the methods of implementing new interactive methods on this topic.

Keywords: noun phrase, singular and plural nouns, person and thing names

Ona tilim - sarchashmangdan sarxush dilim.

Avvalo ot so'z turkumi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, mustaqil so'z turkumlari orasida boshqalariga nisbatan ko'proq qo'llanadigan va kim? nima? qayer? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar aynan ot so'z turkumiga tegishli hisoblanadi. Bundan tashqari ot shaxs va narsa nomlarini ham ifodalab keladi. Masalan: o'qituvchi, tikuvchi, quruvchi yoki parta, ruchka, soat kabi. Ot - yasalishi, miqdor - sonni bildirishi va egalik ko'rsatkichiga ega bo'lishi mumkin. Ot gapda barcha gap bo'laklari vazifasida kelishi bilan bir qatorda kelishik shakllari bilan ham o'zgara oladi. Til hodisasi sifatida otning xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun o'quv material lari hajmi, ularni o'rganish izchilligi belgilangandir. Masalan, aynan 1-2-sinflarda so'z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so'roqlari) o'rganilsa, 3-sinfda esa otga atama beriladi, birlik va ko'plikda qo'llanishini o'zlashtirilishiga ahamiyat beriladi. 4-sinfda otning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishini o'rganishga e'tibor qaratiladi.

E'tiboringizni 3-sinf darsligiga qaratadigan bo'lsak, bu darslikdagi topshiriqlar orqali "Otlarda son", ya'ni otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi ustida ishlash jarayonida o'quvchilarda: birlik va ko'plikda qo'llangan otlarning ma'nosi va qo'shimcha orqali farqlash, bundan keyin birlikdagi otdan ko'plik shaklidagi va aksincha ko'plikdagi otdan birlik sonidagi ot hosil qilish va gapda so'zlarning bog'lanishini hisobga olgan holda, otlardan nutqda to'g'ri foydalana olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

3-sinf ona tili darsligining 3-qism 4-mavzusi aynan ot so'z turkumi bo'yicha she'rlar ertaklar va topshiriqlar berilgan. Masalan, 13-mashqda shunday topshiriq berilgan:

She'rdagi ot so'z turkumlarini so'roqlar yordamida aniqlang. She'rni ko'chiring.
 Rubob chaldi Ravshanjon
 Ra'no tushdi o'yinga.
 Ra'noning raqslari
 Juda ham yoqdi menga.

Bu topshiriq orqali o'quvchiga ot so'z turkumi so'roqlari haqida ko'proq bilim berish, mustahkamlash hamda shu so'roqlarga javob berishda tezlikni oshirishga yordam berish mumkin.

Darslikning 14-mashqida yana ajoyib ertak berilgan. Rasmi ertakni o'qing. Ertakdagi ot so'z turkumiga oid so'zlarni so'roqlar yordamida aniqlang.

 ning tug'ilgan kuni bo'ldi. U tug'ilgan kuniga do'stlari  va  ni taklif qildi.  dasturxon tuzadi. ga , ,  va  qo'ydi.   ga shirin yong'oq,  esa  sovg'a qildi. ,  va   ichib, mazali  yeyishdi. Keyin esa uzoq vaqtgacha xursandchilik qilishdi. Do'stlarning bo'lgani qanday yaxshi.

Gulnora Turotova

Bu mashq qiziqarli bo'lishi bilan birga bolalarni fikrlash doirasini kengaytirishga, hamda tezkorlikka o'rgatadi.


Undan keyingi, 15-mashqda shunday topshiriq berilgan:

So'zlarga so'roq bering. So'zlarni guruhga ajratib yozing.

Qo'shiq, kun, sinf, chegarachi, yozuvchi, yomg'ir, jo'ja, mehnat, stul, ona, quyosh, kuchuk, bo'yoq, bobo, gul, globus, uchuvchi, sport.

Bu topshiriq orqali o'quvchi shaxs va narsa otini mukammalroq o'rganib olishi mumkin. Bundan tashqari o'quvchilarni tezkorlikka chaqirish, diqqatini mavzuga va chiroyli yozishga qaratish mumkin.

Mening fikrimcha, ot so'z turkumi bo'yicha yana bir qator qiziqarli interfaol va didaktik metodlardan foydalansa bo'ladi. Masalan: "Zanjirdan uzulma" metodi. Bu metod quyidagicha amalga oshadi: O'quvchilar 2 guruhga ajratib olinib, 1-guruh shaxs otiga, 2-guruh narsa otiga alifbodagi ketma-ketlikda misollar aytishi kerak.



Bu metodni o'quvchilarni guruhga ajratgan holda ham, yakka holda ham bajarishi mumkin. Bu o'yin bolalarda fikrlashni, zehnni o'stirishga yordam beradi.

Yoki "Kuzatish" metodidan ham foydalanish mumkin. Ushbu metodni bajarish quyidagicha bo'ladi:

Ustoz o'quvchilarga sinf xonasidagi ot so'z turkumiga kiruvchi so'zlardan har kim bittadan topib aytishini tushuntiradi. Bu metod orqali har bir o'quvchini faollikka chaqirish mumkin. Bundan tashqari bolalar mavzuni qay darajada o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkin-ki, boshlang'ich ta'limda ot so'z turkumi eng muhim mavzulardan biridir. Chunki o'quvchilar ot so'z turkumi nimaligini, shaxsni va narsani ajratmasdan turib boshqa so'z turkumlarini o'rgana olishmaydi. Shu sababdan ham so'z turkumlari ichida har doim ot so'z turkumi birinchi o'rinda o'quvchilarga o'rgatiladi. Bundan tashqari boshlang'ich ta'limda ot so'z turkumini o'rgatish o'quvchilarning til va nutq rivojida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki til boyligining katta qismini otlar tashkil etadi va ular orqali inson o'z atrofidagi narsa-hodisalarni, shaxslarni hamda tushunchalarni ifodalaydi. Otlarni o'rgatish orqali o'quvchilarga biz pedagoglar nutqiy faoliyatda aniq va ravon fikr bildirish olish, gaplarni to'g'ri tuzish, yozma va og'zaki savodxonlikni oshirish imkoniyatini bera olamiz. Aslida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining aksariyati ilmiy tushunchalarni ma'nosini to'liq anglamaydi. Bu jarayonda esa biz ot so'z turkumini o'rgatish orqali uni lug'at boyligini oshirishga ham yordam bergan bo'lamiz. Darslarda interfaol metodlardan foydalanish esa sinf xonadagi bir xillikdan zerikishni oldini oladi, uyqu istagini yo'qotadi va darsni samarali o'tishini ta'minlaydi. Shu sababli prezidentimiz ham o'zining siyosiy yig'ilishlaridan birida "Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarur" degan fikrni ilgari surganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalq ta'limi tizimini rivojlantirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqi.

2. S.Matchonov, H.Bakiyeva, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, G.Xolboyeva. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. 2021.

3. O'zbekiston milliy entiklopediyasi. Toshkent. 2000-2005.
4. G'oyibnazar Ernazarov. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish uslubiyati. Toshkent. 2005.
5. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ot_\(so%CA%BBz_turkumi\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ot_(so%CA%BBz_turkumi))